

**O'ZBEK MUMTOZ MUSIQASI VA SHARQ
ALLOMALARI MUSIQA HAQIDA**

Xamdamova Madina Ulug'bek qizi

1993-yil 13-sentabrda *Namangan Viloyati Mingbuloq tumanida tug'ilgan.*

*Hozirda 45-sonli Davlat maktabgacha ta'limgazasi
tashkilotida musiqa rahbari. Ko'plab tanlovlari g'olib. Zulfiya mukofoti
lauriyati. 2024- Turkiya Antologiyasi qatnashchisi*

Annostatsiya. Bugungi kunda muhtaram Prezidentimiz tomonidan olg'a surilayotgan besh tashabbus orqali qamrab olingan –yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, ularni qo'llab –quvvatlash yoshlari ma'naviyatini yuksaltirish, ularni intellaktual jihatdan barkamol avlod bo'lib yetishishlarini ta'minlashda musiqa fanining ham o'rni beqiyos.

Kalit so'zlar: Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, musiqa madaniyati, O'zbek mumtoz musiqa, mumtoz musiqa xususitlari, klassik musiqa, mohir sozanda va xonanda, Sharq allomalari.

Kirish

Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda, O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta'limgazalar ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yilishi muhim ahamiyat kasb etadi. chunki ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat har qanday mamlakat va xalqni yuksakka ko'taradi, uning taraqqiyotini ta'minlaydi kelajagini belgilab beradi. Xalqimiz kelajagi ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning dunyo qarashiga, salohiyati, fidoiyligi, kasbiy tayyorgarligi, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Bunday murakkab ishtimoiy vazifani amalga oshirishda barcha ilm-fanlar qatori musiqa fani ham yetakchi o'rinni egallaydi.

Tahlil va natijalar

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da uzlusiz ta'limgazalar barcha bo'g'inlarida ta'limgazalar huquqiy, iqtisodiy bilimlarini oshirish, tahsil oluvchilarining ta'limgazalarini takomillashtirish, madaniyatli va o'z e'tiqodiga sodiq yoshlarni tarbiyalashga bo'lgan e'tiborni har qachongidan ham kuchaytirish zarurligiga alohida e'tibor berilgan.

Musiqa madaniyati xalqlar orasidagi yaqinlikni, do'stlikni mustahkamlaydigan omil. Ma'naviyati buyuk bo'lgan xalqimizning mumtoz musiqa merosi beqiyos ekanligiga guvohmiz. Mumtoz musiqa xalqimizning ustoz sozanda, xonanda va bastakorlari tomonidan yaratilgan ma'naviy ozuqadir. Ularning mukammalligi, serko'lamligi, salohiyatliliqi, va salobatiligi esa buyuklik nishonasidir.

"Mumtoz musiqa" mohir sozanda, xonanda hamda bastakorlar ijodining eng nodir namunasi bo'lgan maqomlar, yirik shakldagi murakkab kuy va ashulalarni o'z ichiga oladi. Amaliyotda u "mumtoz musiqa" yoki "kasbiy musiqa" deb ham yuritiladi. Mumtoz

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

musiqa xalq ijodiyotining professional yo'nalishiga xos bo'lgan eng sara musiqiy namunalaridir. Ushbu yo'nalishga xos bo'lgan asarlar iste'dodli bastakorlar tomonidan yaratilgan hamda yuksak malakaga ega bo'lgan xonanda va sozandalar tomonidan ijo etib kelingan. Ularning mazmuni murakkab va mukammaldir. Shu bois ularni ijro etish uchun katta san'atkorlar tajribasi, mahorat, malaka va musiqiy savodxonlik kerak bo'ladi. Qadimdan mumtoz musiqa yoshlarga ustozlar tomonidan o'rgatib kelingan. Ushbu ustoz-shogirdlik an'anasi hozirgacha davom etib kelmoqda. Mumtoz musiqa yirik shakldagi kuy va ashulalardan tarkib topgan. Ular mazmunan va shaklan rang-barangdir. Ma'lumki, bizning diyorimiz sheva nuqtayi nazaridan 4ta katta vohaga bo'linadi. Bular: Buxoro-Samarqand, Xorazm, Surxondaryo-Qashqadaryo va Farg'ona-Toshkent vohalaridir. Sheva faqat tilda, balki musiqiy ohanglarda hm o'z aksini topadi.

Mumtoz musiqa deganda O'zbek xalqiga mansub, uning yetuk sozanda-bastakorlari tomonidan asrlar davomida yaratilgan musiqa san'ati namunalari (aytim-ashula va cholg'gu musiqalari) ko'zda tutiladi. Ushbu musiqa boshqa musiqa ijodiyoti namunalaridan bir necha o'ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi:

- Og'zaki tarzlilik- mumtoz musiqa xalq tomonidan asrlar davomida yaratilib, og'izdan -og'izga , avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga o'tib kelgan ijod mahsuli. Ma'lumki qadim zamonlarda ilk bor yuzaga kelgan folklor va mumtoz asarlar omma (xalq) tomonidan ijod qilingan va ijro etilgan. O'rta asrlarda esa iste'dodli (yetuk) sozanda, xonanda va bastakorlar tomonidan yaratilgan. Og'zaki an'anadagi mualliflik ijodi, ommoviy ijod singari, xalq hayoti va uning turli tomonlarini to'g'ri, aniq, badiiy jihatdan mukammal ifoda etishi, xalq didi va talabiga mos tusha olishi tufayli uzoq yashaydi. Demak, mumtoz musiqaning yaratilishi va tarqalishi jonli og'zaki an'ana bilan bog'liq.

- An'anaviylik – mumtoz musiqa na'munalari an'ana sifatida saqlanib, rivojlanib kelmoqda. An'ana deganda uzoq vaqt davomida xalq tajribasidan o'tib, odat tusiga kirgan tadbir yoki xususiyat tushiniladi. An'anaviylik asarlarni og'zaki tarzda yaratilishi, ijro etilishi va tarqalishida asarlarning matnida (kuy va she'r), ijro uslublarida namoyon bo'ladi. Mumtoz asarlarning musiqiy-poetik matni janrlarga ko'ra uzoq muddat davomida doimiy ravishda takrorlanib turadigan qismlarga ega (tsviriy vositalari, parchalar, obrazlar tasvirida namoyon bo'ladi). Ijro etishda (ma'lum uslublarning saqlanishida) ham an'anaviylik mavjuddir.

- Professionallik – mumtoz musiqa asarlari yaratilishi va ijro etilishi professional sifatlar (keng diapazoli ovoz sohibi, mohir sozanda , musiqa va she'riyat qonuniyatlarini bilish va ularga rioya qilish, ma'lum voha va ijrochilik maktabi an'analariga bo'ysunish)ga va mahoratga ega bo'lishdir. Ushbu musiqa namunalari o'ziga xos ijod va ijronjihatlari tufayli professionallikni talab etadi.

- Mualliflik – mumtoz musiqa ijodiyoti yetuk sozanda va bastakor mahsulotidir, u individual-mualliflik (ma'lum shaxs tomonidan yaratilgan) ijodga kiradi. To'g'ri, aksariyat asarlarning mualliflari noma'lum, ammo ayrim asarlarning nomlari ijodkor va ijrochining ismlari bilan yuritilgan, masalan, Abdurahmonbegi, Karimqulbegi, Ashkullosaqilli, Sodirxon hofiz ushshog'i, Eshvoy, Hoji Abdulaziz ushshog'I, va h.k.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Ushbu asarlar o'zining kuy rivoji, shakl murakkabligi va ijro usullari mukammalligi bilan ajralib turadi. Ular "ustoz – shogird" ta'limotini o'tgan yetuk sozanda, xonanda , baxshi, shoir, katta ashulachi va maqomchilar tomonidan ijro etiladi.

5. Lokallik – mumtoz musiqa namunalari mahalliy ijro uslubiga egadir, shu tufayli Buxoro- Shashmaqomi, - xorazm maqomlari turkimi, Farg'ona – Toshkent maqomlqri yoki katta ashula janri faqatgina Farg'ona vodiysida shakllangan, rivojlangan va tarqalgan yoki dostonchilik san'atida Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo va xorazm ijro uslublari va an'nalariga bo'linadi. Ularning har biri o'z mavqeyi, mazmuni, kuy tuzilishi va rivoji, ijrochilik uslublari bilan bir-biridan farq qiladi. O'zbek musiqasida hozirga qadar ko'lami jihatidan bir mucha kengligi, tarixan qadimiyligi,ijro xususiyatlari bo'yicha Benazir, betakrorligi bilan asosan tortta mahalliy uslub tavsiflari alohida ajratilagn bo'lib, ularning har biri muayyan vohabnomi bilan, ya'ni Farg'ona – Toshkent, Buxoro-Samarqand, Qashqadaryo- Surxondaryo va Xorazm lokal (mahalliy) uslublari deb yuritiladi. Har biri jug'rofiy va madaniy muhiti, tarixan ahalining turmush tarzi, musiqiy shevasi, musiqa janrlari va cholg'ularining tarqalishi hamda ijro uslublari bilan ajralib turadi.

Mumtoz musiqa rivolanish tarixini shartli ravishda ikki bosqichga ajratish mumkin.

Birinchisi - XX asrgacha bosib o'tilgan yo'l, og'zaki an'anada saqlanib rivojlanishi, har biri o'z nomiga uslubiga ega bo'lishi, IX asrdan boshlab "musiqiy risolalarda" sharq mumtoz musiqasining nazariy masalalari Farobi, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabi, Darvesh Ali Changiy kabi ulkan olimlar tomonidan atroflicha o'rganib kelingan.

Ikkinchisi – XX asrdan boshlab mumtoz musiqa na'munalari nota yozuvlariga bitilgan, sadolari ohanrabo tasmlariga tushirilgan, yangi ta'lim tizimida o'zlashtirilgan, havaskor va professional ansamblar va ijrochilar tomonidan ijro etilib, jonli an'ana tarzida yashab kelmoqda. Ashula va yallalar, dostonlar va katta ashulalar cholg'u kuylari va turkumlar, maqomlar zamonaviy nota yozuvlarida muhrlanib, abadiy yashashga hozirlandi.

XX asrda o'zbek musiqasini to'plash, yozib olish, ilmiy o'rghanish va targ'ib etishda kompozitor va bastakorlar, musiqashunos olimlarning xizmatlari katta bo'lган.

Ular: Viktor Aleksandrovich uspenskiy(1879-1949)

Yelena Yevgenevna Romanskaya (1890-1947)

Yunus Rajabiy (1897-1976)

Matniyoz Yusupov (1925-1982)

Isoq Rajabov (1927-1982)

Fayzullo Muzaffarovich karomatli(1925)

Mumtoz musiqa jonli ravishda amaliyotda va ta'lim tizimida o'zlashtirilib, XX asrning yetuk sozanda va hofizlari, baxshi va maqom ansamblari repertuaridan mustahkam o'rin oldi va yangicha uslubda taqdim etilmoqda.

Klassik musiqa – muayyan shakl asosida yaratilgan musiqiy asarlarga aytildi. O'zbek xalq klassik musiqasi janrlariga maqomlar, maqom yo'lida yaratilgan ashulalar

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

va kuylar kiradi. Klassik musiqani o'tmishda yashab ijod qilgan bastakorlar, sozanda va xonandalar yaratganlar. Klassik musiqa janrlarining har biri o'z shakliga ega.

Klassik musiqada o'tmishda yashab o'tgan klassik adabiyotimiz namayondalari Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Hofiz g'azallaridan foydalanilgan.

Klassik musiqamiz – maqomlar juda katta diapazoniga ega. Shuning uchun ularni ijo etuvchi xonandada juda keng va tarbiyalangan ovoz bo'lishi kerak.

Shu bois, har bir davr ijodkorlari o'z xalqining o'tmishiga tayansa, mumtoz musiqasini ardoqlasa va an'analarini davom ettirsa, kelajak uchun munosib ish qilgan bo'ladi. Har qanday zamonaviy ijod o'tmish an'analari bilan sug'orilsa, u ijod namunasi millat faxriga aylanadi.

Sharq allomalari, shayxulmashoixlar musiqa san'atiga yuqori baho berib, uning inson ruhiga ma'naviy quvvat bo'lib xizmat qilishini alohida ta'kidlaganlar. Hazrat abu Bakr Buxori-Kalobodiy (vaf. 994-y) musiqa tovushlari – nag'malarni ta'riflab, ularni "jonquvvati va ruh ozig'I turur. Agar jon nag'madan quvvat topsa, o'z maqomi sari ishrof aylaydi, ul maqom ila mashg'ul bo'lardi" deb yozadi.

Vatandoshimiz Abu Nasr Farobiyning (873-950) bu xususdagi fikri ham e'tiborlidir. "Musiqa ilmi shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yoqotgan odamlar xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lган odamlar xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir.

Alloma Abu Ali ibn Sino (980-1037) musiqaning katta tarbiyaviy ahamiyati haqida aytgan quyidagi so'zları ham chuqr ma'noga ega:"Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri, bolani asta-sekin tebratish, ikkinchisi esa, uni uxlatish uchun aytish odat bo'lib qolgan musiqa va allalashtir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lган iste'dodi hosil qilinadi.

Sharq mutafakkirlari musiqaning pok va go'zal muhabbat tuyg'ularini ifodalovchi ajoyib xususiyatlari haqida ham hikmatli so'zlarni bizga ma'naviy meros qoldirganlar.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, musiqa madaniyati fani o'qituvchilari, musiqa rahbarlari maqom yolda yaratilgan mumtoz kuy, ashulalar va xalq og'zaki ijodi namunalarinimusiqa tinglash jarayonida qo'llasa uning yaratilish tarixi, tarbiyaviy ahamiyati, ijro hususiyatlari haqida qisqacha ma'lumotlar berib asarni mahorat bilan ijro etib ko'rsatsa yoki yozuvda eshittirsa o'quvchilarining, bolalarning bundan qadimiy va serjilo mumtoz ashulalarimizga bo'lgn munosabatlari shakllanib, ularni tinglashga va kuylashga istagi paydo bo'ladi.



1031

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulkarimova (Qudratova), E. (2019) Mumtoz musiqa madaniyatimizni o'rghanish yo'llari.
2. 6-sinf uchun darslik. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2017.
3. 7-sinf uchun darslik. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2017
4. Jabborov A. Musiqiy drama va komediya janrlari O'bekiston kompozitorlarining ijodiyotida. Toshkent. 2000-yil...
5. Ismoilova. M . E. Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarning ma'naviy ahloqiy fazilatlarini shakillantirish. Toshkent "Istiqlol " 2000-yil.
6. Ismoilova .M. Vokal o'qitish metodikasi. Oily va o'rta mahsus musiqiy ta'lim talabalari uchun o'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent "Musiqa" nashriyoti 2011yil -61 bet.
7. Rizayeva . M. Yosh xonandaning kamoloti. Toshkent "Cho'lpon"2023-yil.

